MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LOGOPEDIYASI

Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi
1-kurs talabasi NamDPI
abdurashidovadilfuza4@gmail.com
tel:33 707 01 24

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishida didaktik o‘yinlarning o‘rni va samaradorligi yoritilgan. Maqolada nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarni o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etishning metodik usullari bayon etilgan. Tadqiqot davomida o‘yin faoliyati orqali bolalarning lug‘at boyligini oshirish, fonematik eshitish qobiliyatini shakllantirish va nutqning grammatik qurilishini to‘g‘rilash masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Logopediya, Perseptiv, Reproduktiv, Automatizatsiya, Psixolingvistika, Nevrifiziologik o,illar, Kognitiv omil.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и эффективность дидактических игр в развитии речи у детей дошкольного возраста. Описываются методические методы организации логопедических занятий с детьми с нарушениями речи на основе игровых технологий. В ходе исследования анализируются вопросы расширения словарного запаса детей, формирования фонематического слуха и коррекции грамматической структуры речи посредством игровых занятий.

Ключевые слова: Логопедическая терапия, Перцептивный, Репродуктивный, Автоматизация, Психолингвистика, Нейрофизиологические факторы, Когнитивный фактор.

Abstract: This article discusses the role and effectiveness of didactic games in the speech development of preschool children. The article describes methodological

methods for organizing speech therapy sessions with children with speech disorders based on game technologies. During the study, the issues of increasing children's vocabulary, forming phonemic hearing, and correcting the grammatical structure of speech through game activities were analyzed.

Keywords: Speech therapy, Perceptive, Reproductive, Automation, Psycholinguistics, Neurophysiological factors, Cognitive factor**.**

Zamonaviy pedagogika va defektologiya sohasida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Nutq - bu nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning intellektual va ijtimoiy kamoloti uchun poydevordir. Biroq, so‘nggi yillarda turli ekologik, biologik va ijtimoiy omillar sababli maktabgacha yoshdagi bolalar orasida nutq rivojlanishining orqada qolishi va boshqa turli nutqiy nuqsonlar ko‘p kuzatilmoqda. Ushbu muammoni samarali hal etish uchun an’anaviy ta’lim usullarini innovatsion va interaktiv metodlar bilan boyitish talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin faoliyatining yetakchi o‘rni L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin kabi psixologlar va R.E. Levina, G.V. Chirkina kabi logoped-olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Ularning ta’kidlashicha, bola o‘yin jarayonida o‘zini erkin his qiladi, bu esa nutqiy to‘siqlarni (bar'yerlarni) yengib o‘tishga va artikulyatsion apparat faoliyatini tabiiy ravishda faollashtirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin faoliyatining yetakchi o‘rni L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin kabi psixologlar va R.E. Levina, G.V. Chirkina kabi logoped-olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Ularning ta’kidlashicha, bola o‘yin jarayonida o‘zini erkin his qiladi, bu esa nutqiy to‘siqlarni (bar'yerlarni) yengib o‘tishga va artikulyatsion apparat faoliyatini tabiiy ravishda faollashtirishga yordam beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi logopedik mashg‘ulotlar jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanishning metodik asoslarini tahlil qilish va ularning nutqiy korreksiya samaradorligini oshirishdagi rolini yoritib berishdir. Tadqiqot vazifalari

qatoriga maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yin turlarini saralash va ularni nutqning turli tomonlarini (fonematik eshitish, lug‘at boyligi, grammatik qurilish) rivojlantirishga yo‘naltirish kiradi.

Ushbu ishda logopedik o‘yinlarning nafaqat nutqni tuzatish, balki bolaning hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirishdagi integrativ imkoniyatlari ochib beriladi. Tavsiya etilayotgan didaktik o‘yinlar to‘plami maktabgacha ta’lim tashkilotlari logopedlari, defektologlar va tarbiyachilar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Logopedik o‘qitishning psixolingvistik asosi:

Logopedik o‘qitishning psixolingvistik asosi nutqning shakllanishi va rivojlanishini psixologik va lingvistik jihatdan o‘rganishga asoslanadi.

Psixolingvistika nutqiy faoliyatni inson psixikasi bilan bog‘liq holda tahlil qiladi va nutqiy rivojlanishning mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, nutq shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

Perseptiv bosqich – bola atrofdagi nutq tovushlarini idrok qiladi va ularni ajrata boshlaydi.

Reproduktiv bosqich – bola eshitgan tovushlarni takrorlashga harakat qiladi, artikulyatsion mexanizmlar faollashadi.

Rivojlanish bosqichi – bola grammatik va leksik tuzilmalarni o‘zlashtirib, to‘liq gaplarni shakllantira boshlaydi.

Automatizatsiya bosqichi – bola o‘zlashtirgan nutqiy qoidalarni mustahkamlab, erkin muloqot qilishga o‘tadi.

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, nutqiy buzilishlar bir qancha omillarga tayanadi:

Neyrofiziologik omillar – markaziy nerv tizimining rivojlanishidagi muammolar, miya faoliyatining sustligi kiradi.

Kognitiv omillar – bolaning nutqiy eshitish qobiliyati va tafakkur jarayonlarining yetarlicha shakllanmagan holatlarda yuzaga keladi.

Lingvistik omillar – fonetik va grammatik tizimni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar sabab bo‘ladi. jtimoiy-psixologik omillar – nutqiy muhitning yetishmovchiligi yoki noto‘g‘ri muloqot shakllari hisoblanadi.

Psixolingvistik yondashuv bolalarda nutqiy buzilishlarni to‘g‘rilashda tamoyillarga asoslanib faoliyat olib boriladi. Nutqiy idrokni rivojlantirish orqali bolaning eshitish qobiliyatini va fonematik tafakkurini shakllantiradi. Nutqiy muloqotni rag‘batlantirishda bola bilan interaktiv suhbat va o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. Fonetik-fonematik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bilan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish va ularni avtomatlashtirishdan iborat. Semantik va sintaktik rivojlanishni shakllantirish esa bolaga so‘z boyligini oshirish va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap qurishni o‘rgatish ko‘maklashadi

Nutq rivojlanishining fiziologik bosqichlari

1. Tug‘ilishdan 1 yoshgacha – Ovozlarga javob reaksiyalari, tovush chiqarish reflekslari.

2. 1–3 yosh – So‘z boyligi shakllanishi, oddiy gaplar tuzish.

3. 3–5 yosh – Nutq grammatikasi rivojlanadi, bog‘langan gaplar paydo bo‘ladi.

4. 5–7 yosh – To‘liq shakllangan nutq, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish.

Maktabgacha ta’limda logopedik o‘qitish bolalarning fiziologik rivojlanishini inobatga olgan holda olib boriladi. Miya, nutq apparati va eshitish tizimining yetukligi nutq rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Nutqning rivojlanishi nafas olish, artikulyatsiya va eshitish qobiliyatiga bog‘liq. Shuning uchun logopedik mashg‘ulotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Artikulyatsion gimnastika – Til, lab va jag‘ harakatlarini tovushlarni to‘g‘ri aytish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nafas mashqlari – To‘g‘ri nafas olishni shakllantirish va nutq davomiyligini oshirish to‘g‘ri talaffuz uchun muhim.

Fonematik eshitish rivojlantirish – Eshitish analizatorining sezgirligini oshirish tovushlarni to‘g‘ri ajratish va eshitib anglash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’limda logopedik o‘qitishning nazariy asoslari bolalarning nutqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, nutq buzilishlarini bartaraf etish va ularning muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va neyropsixologiya fanlarining integratsiyasiga asoslanadi. Logopedik o‘qitishning asosiy tamoyillari tizimlilik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, interaktiv yondashuv hamda ota-onalar bilan hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Nutq rivojlanishi jarayonida markaziy asab tizimi, eshitish va artikulyatsiya apparati, nafas olish tizimi kabi fiziologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Nazariy jihatdan logopedik ta’lim bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari, ko‘rgazmali metodlar, artikulyatsion gimnastika, fonematik eshitish mashqlari kabi usullarga tayanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun logopedik mashg‘ulotlar ularning umumiy psixik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Shunday qilib, maktabgacha ta’limda logopedik o‘qitish ilmiy-nazariy asoslar va amaliy metodikalarga tayanib tashkil etilganda, bolalarning nutqiy qobiliyatlari samarali rivojlanib, ularning maktabga tayyorgarlik darajasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Abdurashidova, Dilfuza Akmaljon Qizi, and D. Oribboyeva. "Nutqida nuqsoni bor bolalarning psixologiyasi.*Science and Educatio”*6.10 (2025): 579-583.

2. Oribboyeva, D. D. "AQLI ZAIF BOLALARNI MEHNAT FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA VIZUAL VOSITALARNING O‘RNI.”*EDUCATION AND SCIENCE YESTERDAY AND TODAY*”3.3 (2026).

3. Abdurashidova, Dilfuza. "The Impact of Cryptocurrencies on the Global

Economy.”*European Journal of Management, Economics and Business*”1.3 (2024): 201-205.

4.Djamolova Noila Zayniddinovna “MAKTABGACHA TA’LIMDA LOGOPEDIK O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI” 1.02.2025